

Yangibozor tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi va "Firuza Gaz" ma'suliyati cheklangan jamiyati o'rtasida tuzilgan "Mahsulot yetkazib berish haqida"gi shartnomani huquqiy ekspertizadan o'tkazish yuzasidan

X U L O S A

2022 yil 14 yanvar'

Yangibozor tumani

Men Yangibozor tuman Yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i N.Nurjonov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 iyundagi PQ-5168-son qarori bilan tasdiqlangan "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida"gi Nizomga asosan Yangibozor tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi va "Firuza Gaz" ma'suliyati cheklangan jamiyati o'rtasida 2022 yil 13 yanvar' kuni tuzilgan "Mahsulot yetkazib berish haqida"gi shartnomasi loyihasini o'rganib chiqib, uni huquqiy ekspertizadan o'tkazdim.

Yuqorida nomlari ko'rsatilgan yuridik shaxslar o'rtasida tuzilgan "Mahsulot yetkazib berish haqida"gi mazkur shartnomasi O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy ba'zasi to'g'risida"gi 1998 yil 29 avgustdagagi Qonunining 10, 20, 21 moddalari va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 386-424-moddalari normalari bilan tartibga solingan.

Shartnomaning umumiy summasi jami 1 498 500 (bir million to'rt yuz to'qson sakkiz ming besh yuz) so'mni tashkil qilib, shartnomani imzolagan Yangibozor tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Sobirov va "Firuza Gaz" ma'suliyati cheklangan jamiyati I.Atadjanovlarga yuridik shaxs Nizomiga hamda chiqarilgan buyruqlarga asosan birinchi imzo huquqi berilgan.

Shartnomani imzolashda xo'jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi, taraflarning o'zaro manfaatdorligi, shartnomasi intizomiga rioya etish, taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi printsplariga to'liq rioya qilingan va taraflarning huquqlari hamda majburiyatlarini aniq ko'rsatib o'tilgan.

Yuqoridagilarga hamda O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy ba'zasi to'g'risida"gi Qonunining 20-21-moddalariga asosan;

X U L O S A Q I L I N D I:

Yangibozor tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi va "Firuza Gaz" ma'suliyati cheklangan jamiyati o'rtasida 2022 yil 13 yanvar' kuni tuzilgan "Mahsulot yetkazib berish haqida"gi shartnomasi loyihasi amaldagi qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilganligi va qonunchilik texnikasi talablariga muvofiqligi qayd etilsin.

**Yangibozor tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi boshlig'i**



Nurjonov